

YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIDA DINIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Saparova Gulbaxar Aytbaevna

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

Atamuratov Shuxrat

*Nukus davlat pedagogika instituti
Ma‘naviyat asoslari mutaxassisligi bo‘yicha 2-bosqich magistrant*

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlar tarbiyasida milliy va ma‘naviy qadriyatlar ularda yuksak axloq, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni shakllantirishda asosiy masalalari muhokama qilinadi. Bundan tashqari yoshlar axloqiy tarbiyasida diniy qadriyatlar (islomiy an‘analar, urf-odatlar) halollik, ota-ona hurmati, sabr-toqat va ilm olish kabi fazilatlar tafsiflanadi. Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning saqlanishi muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *ma‘naviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, islomiy an‘analar, urf-odatlar, halollik, ota-onaga hurmat, sabr, toqat, yuksak axloq, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash*

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Сапарова Гульбахар Айтбаевна

*Доцент Нукусского государственного педагогического
института, доктор философии (PhD) по философской науке,*

Атамуратов Шухрат

*студент 2-го курса магистратуры по специальности
«Основы духовности» Нукусского государственного педагогического института*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются основные вопросы национальных и духовных ценностей в воспитании молодежи в формировании высокой нравственности, патриотизма и национальной идентичности. Кроме того, описываются религиозные ценности (исламские традиции, обычаи) в нравственном воспитании молодежи, такие качества, как честность, уважение к родителям, терпение и обучаемость. Также

отмечается важность сохранения национальных ценностей в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: духовные ценности, национальные ценности, религиозные ценности, исламские традиции, обычаи, честность, уважение к родителям, терпение, терпимость, высокая нравственность, патриотизм, осознание национальной идентичности

THE ROLE OF RELIGIOUS VALUES IN THE MORAL EDUCATION OF YOUTH

Saparova Gulbakhar Aytbaevna

*Associate Professor of Nukus State Pedagogical
Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy*

Atamuratov Shukhrat

Nukus State Pedagogical Institute 2nd year master's student

ABSTRACT

The article discusses the main issues of national and spiritual values in the education of young people in the formation of high morality, patriotism and national identity. In addition, religious values (Islamic traditions, customs) in the moral education of young people are described, such qualities as honesty, respect for parents, patience and learning. Also, in today's globalization, the preservation of national values is important.

Keywords: *spiritual values, national values, religious values, Islamic traditions, customs, honesty, respect for parents, patience, tolerance, high morality, patriotism, awareness of national identity.*

KIRISH

Yoshlar tarbiyasida milliy va ma'naviy qadriyatlar ularda yuksak axloq, vatanparvarlik va milliy o'zlikni shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Ular yoshlarni ajdodlar merosiga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy yetuk inson etib tarbiyalash orqali globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Yoshlar axloqiy tarbiyasida diniy qadriyatlar (islomiy an'analar, urf-odatlar) halollik, ota-ona hurmati, sabr-toqat va ilm olish kabi fazilatlarni shakllantirib, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan kamolga yetkazishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Diniy qadriyatlar yoshlarni salbiy illatlardan saqlab, jamiyatda komil inson bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashadi.

Diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi hamda ularning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik roli bo‘yicha xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar madaniyat, dinshunoslik va ta‘lim fanlari kesishmasida turli yondashuvlarni taklif etadi. Ya‘ni bu ilmiy izlanishlar din va dunyoviy qadriyatlarni ajratilgan fenomenlar sifatida emas, balki ular orasidagi uzviy bog‘liqlik va o‘zaro ta‘sir yaratuvchi dinamik jarayon sifatida tahlil qiladi. [1; 258]

Masalan, yoshlarning ma‘naviy va axloqiy tarbiyasida diniy va dunyoviy qadriyatlarning uyg‘unligi haqida olib borilgan tahliliy izlanishlarda, mazkur qadriyatlar bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy me‘yorlar sifatida qaraladi, ularning uyg‘unligi yoshlarning axloqiy barqarorligi va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR

Bu yondashuv yoshlarni nafaqat diniy yo‘nalishda tarbiyalash, balki ularni zamonaviy ijtimoiy muhitda faol ishtirokchi qilishni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar, xususan, diniy ta‘lim va dunyoviy axloqiy me‘yorlarni birlashtirish yoshlarning ma‘naviy va axloqiy barqarorligini mustahkamlashda muhim ekanini ta‘kidlaydi.

Yoshlar axloqiy tarbiyasida diniy qadriyatlarning o‘rni:

Axloqiy poydevor: Diniy qadriyatlar halollik, poklik, ota-onaga hurmat va o‘zaro mehr-oqibat kabi yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Tarbiya vositasi: Qur‘oni karim va hadislar asosidagi islomiy tarbiya metodlari yoshlar ongini ijobiy tomonga shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Jamiyat barqarorligi: Milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi yoshlarda vatanparvarlik, mas‘uliyat va insoniylik tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Zamonaviy yondashuv: Islomiy an‘analarni zamonaviy sharoitda tatbiq etish orqali yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, axloqiy buzuqlikning oldini olish mumkin.

Milliy qadriyatlarning ahamiyati va ularning saqlanishi-milliy madaniyat, til, an‘analar, urf-odatlar va diniy e‘tiqodlar orqali namoyon bo‘ladi. “Yoshlar milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali o‘z millatining tarixiy merosini tushunish, unga hurmat va sadoqat hissi bilan munosabatda bo‘lishadi”. [2]

Milliy va ma‘naviy qadriyatlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Milliy o‘zlikni anglash: Yoshlarning o‘z tarixi, tili, madaniyati va an‘analarini chuqur o‘rganishi orqali milliy g‘urur hissini shakllantiradi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya: Halollik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni yoshlar qalbiga singdiradi.

Vatanparvarlik ruhini kuchaytirish: Vatanga sadoqat, yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidoyilik hissini rivojlantiradi.

Globalashuv ta‘siridan himoya: Ommaviy madaniyatning salbiy oqimlariga qarshi ma‘naviy immunitetni hosil qiladi.

Ijtimoiy moslashuv: Jamiyatda o‘z o‘rnini topish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish va boshqalar bilan o‘zaro hurmatda bo‘lishni o‘rgatadi.

Yoshlarning ma‘naviy va axloqiy tarbiyasi har bir millatning ijtimoiy barqarorligi, madaniy uyg‘unligi va kelajakdagi rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

USULLAR

XXI asrning dastlabki yillaridan boshlab, globalizatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlarning qadriyat tizimlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan, ma‘naviyatning shakllanishida an‘anaviy diniy qadriyatlar va zamonaviy dunyoviy ijtimoiy normativlar integratsiyasi dolzarb muammo sifatida yuzaga kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni tarbiyalashda diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon davlat siyosati, pedagogik yondashuvlar va jamiyat institutsional tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. [3; 223-224]

Globalashuv sharoitida milliy qadriyatlarning saqlanishi muhim masaladir. Chunki globalashuv ko‘pincha madaniy bir xillik va milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Yoshlar yangi qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘z milliy merosini unutmasliklari kerak. Buning uchun “milliy madaniyatni rivojlantirish, milliy tilni qo‘llash va milliy an‘analarni saqlash kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega”. [4;96]

Insonning qadr - qimmat, sha‘ni, or - nomusi, milliy g‘ururi – milliy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Milliy qadriyatlar, har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o‘ziga xoslik, o‘ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san‘atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm - rusumlarida, bayramu - sayillarida o‘z ifodasini topadi.

NATIJALAR

Milliy qadriyatlar milliy ma‘naviy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo‘shgan munosib hissasining hosilasidir. Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm -rusumlar, bayramu-sayillar atshkil etadi. o‘zbek milliy qadriyatlar mazmunida insonparvarlik g‘oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o‘zbeklarning o‘zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o‘zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o‘zaro hurmat, bir - biriga suyanish va yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama e‘zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o‘sha millatga

mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy - madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko‘rsatkichdir. [5;676-677]

Milliy qadriyatlarimizning yorqin ko‘rinishlari sifatida: vatanga muhabbat, do‘stlikka sadoqat, ishonch, oilaga vafo hamda mehr tuyg‘ularini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Inson faqatgina dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirib, yoki bo‘lmasa insonga xos bo‘lgan mehr, sadoqat, ishonch, odob-axloq, hurmat, tinchlik kabi tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishning o‘ziga uning ma‘nan yetuk bo‘lib yetishishi uchun yetarli bo‘lmaydi. Insonga uning irodasi qudrati, mas‘uliyat tuyg‘usini shakllantirish, kasbga, atrofdagilarga mehnatga, ruhan va qalban mehrlil va oqibatli bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirish, yuragida ulug‘ maqsadlar tug‘ilishiga va jamiyatda borayotgan hodisalarga o‘z fikrini bildira olishiga erishishimiz lozim.

Yoshlarda shu xususiyatlarni shakllantirishning turli usullari mavjud: ota- bobolarning pand-nasihatlarini tinglash va bundan o‘zi uchun to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish orqali, eng muhimi yoshlarga uzluksiz tarbiyani jonudildan berish orqali va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzda insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a‘zolariga munosabatini namoyon qiladi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos tarzda ta‘sir ko‘rsatib, gohida ideal sifatida kishilarni samarali faoliyatga undasa, gohida ma‘naviy mezon, axloqiy talab, qonun-qoida sifatida odamlarning xatti-harakatlari va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi. Ularning faoliyatlarini boshqarib yoki yo‘lga solib turadi, yani regulativ funksiyasini bajaradi.

Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an‘analarini, jamiyatning moddiy va ma‘naviy boyliklarini, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Dunyoviy qadriyatlarga o‘rta asr allomalarimizning asarlarida ifoda etilgan adolatli jamiyat, barkamol komil inson, tinchlik va farovonlik g‘oyalarini ham kiritish mumkin.

Diniy qadriyatlar diqqat markazida inson va insoniylik masalasi asosiy o‘rin tutadi. Xususan, Avestoda inson ma‘naviyati va amaliy faoliyatiga katta urg‘u berilgan. Asarda yaxshilik, yorug‘lik, barkamollik, ezigulik, hurfikrlilik, eng ustuvor qadriyatlar sifatida talqin qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, diniy qadriyatlar yoshlarning ma‘naviy olamini boyitib, ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Milliy va ma‘naviy qadriyatlar yoshlarni

komil inson bo‘lib yetishishida asosiy yo‘naltiruvchi kuch bo‘lib, ularning hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashlariga yordam beradi.

Yoshlar tarbiyasida diniy qadriyatlarning tutgan o‘rni nihoyatda muhimdir. Chunki diniy ta’limotlar avvalo insonning ichki dunyosini tarbiyalaydi, unda halollik, adolat, mehr-oqibat, hurmat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Oila, maktab va jamiyatdagi diniy-ma’naviy muhit yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri talqin qilingan diniy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi, ularni zararli g‘oyalardan himoya qiladi va hayotga ongli yondashishga undaydi. Demak, diniy merosga suyangan holda tarbiyalangan yoshlar komil inson, ma’rifatli shaxs va jamiyatning munosib fuqarosi sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A. Yangi O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasida diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi. International conference pedagogical reforms and their solutions. Volume 14. Issue 1. 2026. B.258.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023 yil 11 sentyabr. PF-158-son. <https://lex.uz/docs/6600413> [26.04.2024].

3. Yusupov A. O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy mentalitetining o‘rni. Qo‘qon unuversiteti xabarnomasi. 2024. T. 13. B.223-224.

4. Abduraimov E. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va global qadriyatlarning o‘zaro ta’siri. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya” nomli ilmiy-amaliy konferentsiya. B.96.

5. Barotov Sh, Ikromova S. Milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasidagi o‘rni. Ekonomika i socium. №12 (103). 2. 2022. B.676-677//www.iupr.ru